



**BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI  
TA'KOMIL TASDИRISH:  
O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BANDOLASH  
XALQARО ILMӢY AMALӢ ANJUMAN  
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**"BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI  
TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-  
BAHOLASH"**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ  
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-  
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ  
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**"IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:  
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT"**

**MATERIALS  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE**

**2023-yil 19-oktabr**

**BUXORO – 2023**

### **Ilmiy anjuman dasturiy qo‘mitasi**

- |                |  |
|----------------|--|
| O.X.Xamidov    | - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais.                              |
| T.H.Rasulov    | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini  |
| F.N.Nurulloyev | - IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo.  |
| A.R.Hamroyev   | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a’zo.                   |
| M.M.Yuldasheva | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), a’zo.  |
| A.Sh.Husenova  | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib. |

### **Ilmiy anjuman tashkiliy qo‘mitasi**

- |                 |   |
|-----------------|---|
| T.H.Rasulov     | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais.  |
| O‘.U.Rashidov   | - Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo.   |
| F.N.Nurulloyev  | - IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo.   |
| A.R.Hamroyev    | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a’zo.                      |
| R.A.Qo‘ldoshev  | - Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a’zo.        |
| M.G.Navro‘zova  | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a’zo. |
| N.B.Boymurodova | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.   |
| A.Sh.Husenova   | - Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib.    |

### **Mas’ul muharrir**

A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

#### **Taqrizchilar:**

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor.

F.M.Qosimov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olishi, asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olishi, matndagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna olishi ta’kidlangan bo‘lsa, 2-sinf o‘qish darslarida ushbu ta’kidlangan kompetensiyalarga qo’shimcha ravishda ertak va she’riy matnlarni tinglab, tushuna olish, bir daqiqada 30-35 ta so‘zni o‘qiy olish, mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa olish, darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila olish, kichik hajmdagi 5 ta she’rni yoddan aytib bera olish, o‘qituvchi yordamida asar qahramonlariga baho bera olish va asar mazmunidan ta’sirlana olish kabi jihatlar alohida qayd etilgan. Shuni ta’kidlash joizki, yuqorida ta’kidlangan kompetensiyalarning barchasi matn ustida ishslash orqali amalga oshiriladi va nutq o‘stirishga yo‘naltiriladi. Mana shu jihat e’tiborga olinsa, ushbu tadqiqot ishining hozirgi paytda yanada dolzarb ekanligi namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida nutq o‘stirish ishining matn asosida amalga oshirilishi bu jarayonda samarali yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Bu esa nutq o‘stirish ishini ustuvor tamoyillar asosida tashkil etishni taqozo qiladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

10. Abdullayeva Q., Shodmonova Sh., Rahmonbekova S. 2-sinfda o‘qish darslari. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 128 b.
11. Aktualnye problemy metodiki obucheniya chteniyu v nachalnykh klassax / Pod red. M.S. Vasilevoy, M.I. Omorokovoy, N.N. Svetlovskoy. – M.: Pedagogika, 2009. – 215 s.
12. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi (tevarak-atrofn o‘rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 b.
13. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006. – 125 b.
14. Loseva L.M. Kak stroitsya tekst / Posobie dlya uchiteley. Pere.izd. – M.: Prosveshenie, 2000. – S. 4-5.
15. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi (Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017/2020. – 216 b/160 b.
16. Ne’matova A. Tarqatma materiallar (Grammatika, imlo va nutq o‘stirish). – T.: O‘qituvchi, 2008. – 224 b.
17. Politova N.I. Razvitie rechi uchaщixsya nachalnykh klassov. – M.: Prosveshenie, 2000. – 192 s.

### **HUSAYN VOIZ KOSHIFIY QARASHLARIDA INSONIY FAZILATLARNING MA’NAVIY- AXLOQIY JIHATLARI.**

**Ashurova Marhabo Sayfulloyevna**

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Axloqiy tarbiya shakllanadigan maskan bu, avvalo, oiladir. Pedagogik konsepsiada oila-maktab hamkorligi bola tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Oila-maktab hamkorligi natijasida yoshlar tarbiyasi yuksak ma’naviy qadriyat darajasiga yetishi belgilangan. Axloqiy tarbiya - tevarak atrofdagi narsalar, kishining jamiyat uchun ijobili yoki salbiy ahamiyatini ko’rsatuvchi axloqiy tamoyillar, g‘oyalilar, yo‘l - yo‘riqlar va maqsadlarda ifodalangan baho mezonlari va usullaridir”.

**Tayanch so‘z va iboralar:** axloq, odob, fazilat, hayo, so‘z, muomala, axloqiy tarbiya, suhbat, suhbatlashish odobi.

**Аннотация:** Местом формирования нравственного воспитания является, прежде всего, семья. В педагогической концепции особое значение в воспитании детей имеет сотрудничество семьи и школы. В результате сотрудничества семьи и школы определено, что образование молодежи достигнет высокого уровня нравственной ценности. Нравственное воспитание – это критерии и методы оценки, выраженные в окружающих вещах, моральных принципах, идеях, установках и целях, которые показывают положительную или отрицательную значимость человека для общества.

**Основные слова и фразы:** мораль, манеры, добродетель, скромность, речь, поведение, нравственное воспитание, разговор, этикет беседы.

**Abstract:** The place where moral education is formed is, first of all, the family. In the pedagogical concept, family-school cooperation is of particular importance in child education. As a result of family-school cooperation, it is determined that youth education will reach a high level of moral value. Moral education is the evaluation criteria and methods expressed in the surrounding things, moral principles, ideas, guidelines and goals that show the positive or negative importance of a person for society.

**Basic words and phrases:** morality, manners, virtue, modesty, speech, behavior, moral education, conversation, conversation etiquette

Axloqiy tarbiya shakllanadigan maskan bu, avvalo, oiladir. Pedagogik konsepsiyada oilamaktab hamkorligi bola tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Oila-maktab hamkorligi natijasida yoshlar tarbiyasi yuksak ma'naviy qadriyat darajasiga yetishi belgilangan. Axloqiy tarbiya - tevarak atrofdagi narsalar, kishining jamiyat uchun ijobjiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi axloqiy tamoyillar, g'oyalar, yo'l - yo'riqlar va maqsadlarda ifodalangan baho mezonlari va usullaridir<sup>1</sup>.

Inson uchun birinchi muloqot shakli bu til va so'zdir. Muomala insonlarni bir-biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilat. Insonning go'zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rnnini topa olishida, boshqalarning hurmat ehtiromiga erishishda muomalaning o'rni katta sanaladi. Chunki muomala jarayonida so'z aqldan quvvat oladi. So'z, yuz va ko'z, tilning ko'rg'i hisoblanadi. Koshifiy "odamzodning sharafi nutqi bilan va nutqiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir", - deb aytadi [90]. So'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoni bo'lishi kerakligi va bunday bo'lmasa jum turgan ma'kulroq ekanini ta'kidlaydi. Tildan ixtiyor olgan so'z esa muomala ishtirokchisiga aylanib, kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Koshifiy shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar uchun ham, muridlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo'lgan bir qancha suhabat odoblari haqida to'xtalib o'tadi. Bular: "birinchidan, har kimning ahvoliga qarab munosib so'z aytsin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To'rtinchidan, ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Bechinchidan, odamlarga naf'i tegadigan ma'noli garlarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qadr-qimmati bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisol urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qaerga ekmang unib shiqmaydi", - deb ta'kidlaydi. Mutafakkir fikrini davom ettirib, martabaga etmaganlarning suhabat odobining sakkizta fazilatini keltiradi. Bular: "birinchidan, so'ramagunlaricha gapirmslik, ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko'tarmaslik, uchinchidan, gapirayotganda o'ngu so'lga qaramaslik...(tarjimada yo'q), beshinchidan, qattiq gapirmsin va betga choperlik qilmaslik, oltinchidan, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirish, ettinchidan, odamlar gapini bo'lib so'z kiritmaslik, sakkizinchidan, ko'p gapirmslik, oz bo'lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin", - deb ta'kidlaydi.

Suhbatlashish jarayonida muomalaning asosiy jihatlari so'zlash va tinglay bilishni tashkil etadi. Shuning uchun ham muomala madaniyatida inson o'zining xushfe'lllik, bosiqlik, rostgo'ylik, kansuquqlik va shirinsuxanlik kabi axloqiy fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Koshifiy har bir kishi so'zlayotganda "sidqu sadoqat tili" bilan gapirish kerakligini, eshituvchi esa uni "qabul qulog'i" bilan tinglashi kerakligini ta'kidlaydi. Suhbat jarayonida esa yaxshi va yomon so'zlar ham bir tildan chiqadi va uning aytadigan so'zlari birovga foyda keltirishi kerakligini daraxt misolida tushuntirishga harakat qiladi. "Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar: men so'zniki va so'z menigidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va Rasulning so'ziga muvofiq kelmaydigan so'z, deb javob bergil. Agar yaxshi

<sup>1</sup> Abdulhay Abduraxmonov. Saodatga eltuvchi bilim. –T.: "Mavarounnahr" 2004. 525- bet.

so'z qaysi, deb so'rasalar, kishilarga nafi tegadigan so'z, deb aytgil. Yomon so'z qaysi, deb so'rasalar, birovga zarari tegadigan so'z, deb javob bergil", deb ta'kidlaydi.

Insonning fe'l-atvorida odobi uning odamlar bilan munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shundan bilish mumkinki, ma'naviyatlari insonning "ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi, tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotidir".

Axloqiy fazilatlardan yana biri rostgo'ylikdir. Bu borada Koshify "Axloqiy Muhsiniy" asarining yigirma beshinchi bobida to'xtalib o'tadi. Rostgo'ylik natijasida odam oxiratda najot topadi. Ulug'lar aytadilar, so'z maydoni shunchalik kengki, aytuvchini bayon oyog'i xilof toshiga tegmaydi. Rostgo'ylik guli so'z chamanida manfaat mevasini bergen vaqtida, nafs notig'i yolg'onidan paydo bo'lgan shoxga oroyish berish yarashmaydi. Ulug'lardan biri aytadiki, "gar taqdir yolg'on aytish azobi, qiy nog'i va rost so'zlash uchun savob sababi bo'lmasa, oqillar yolg'ondan parhez qilib rostgo'ylik tarafiga mayl qilmagan bo'lar edi".

Koshify shuning uchun ham yolg'on so'z kishini xor va beqadr qiladi, kishining obro'sini to'kadi, deb aytadi. Kishilarga qilingan hazilu mazax ham yolg'on so'z kabi beizzat qiladi. Agar hukumat ahli hazil va mazaxga moyil bo'lalar, haybat va shavkatlariga nuqson yetadi. Bundan tashqari, hazil va o'yindan mazax qilingan kishining ko'ngli og'rib qolishi mumkin. Shu sababdan u xafa bo'lib, kina tutib, fursat topib, qasdini olishga harakat qiladi. Shundan fitnalar paydo bo'ladi, deb tushintiradi. Husayn Voiz Koshify fikrini Nosir Xusravning ixcham masnaviy shaklidagi dostoni (592 baytdan iborat) bo'lgan "Ro'shnoinoma" kitobidagi ushbu mazmundagi she'r bilan davom ettiradi.

Hazlu yolg'oni qilmagil pesha,

Urmag'il, o'z oyoqingga tesha.

Aylagay hazil shohni xira,

Oyni tufroqdin qilur tira.

Mutafakkir obro'li insonlarga va hukumat lavozimidagi kishilarga xalqni g'iybat qilish munosib emasligini ta'kidlaydi. Chunki Alloh Taollo ularga har qanday so'zni ibo qilmay, yuziga ro'baro' aytish uchun qudrat bergen, deb tushuntiradi. Shunday ekan, ularga o'zini g'iybatchilar toifasiga qo'shish oqillar ravishidan emas, balki mulozimlarni ham g'iybatdan man qilish zarurki, g'iybatning zarari dunyo va oxiratda juda ko'p va hisobsizdir, deb fikr yuritadi.

Koshify insondagi chiroysi xulq va muloyimlik to'g'risida "xulqdan murod xushxulqlik va xushfe'llikdir va muloyimlikdan maqsad yumshoqlik va toza qalblikdir, deydi. Yana biridan murod lutfli va ko'ngil ovlovchi bo'lishdir, boshqa biridan maqsad murosali bo'lmoqdir, - deb aytadi. Ammo xushxulqlik va xushfe'llik hamma ne'matlarning yaxshirog'idir va sifatlarning go'zalrog'idir, - deb tushuntiradi.

Koshify xushxulqlikning belgilarini quyidagicha tasniflaydi. Birinchisi, yaxshi ishlar borasida elga qarshi bo'lmaslik, ikkinchisi, o'z nafsiyi tiyish, uchinchisi, birovning aybini qidirmaslik, to'rtinchisi, har kimdan noloyiq ish yuz bersa, uni tuzatishga harakat qilish, beshinchisi, gunohkor uzr aytса uzurini qabul qilish, oltinchisi, muhtojlarning hojatini chiqarish, ettinchisi, odamlar uchun mashshaqqat tortish, sakkizinchisi, xudbinlik qilmaslik, to'qqizinchisi xaloyiqqa ochiq yuzli bo'lish, o'ninchisi, odamlarga yaxshi so'z aytishdir.

Koshify muloyimlikning ma'nosi yumshoqlik bilan xalq ishida muomala qilishdir va har bir ishda muloyimlik yor bo'lsa, shu ishning yaxshilik bilan tugashidan o'zga ehtimoli yo'qdir, - deb javob beradi. Ammo har bir ishda qo'pollik va dag'allik hamroh bo'lsa, vayron bo'lishdan o'zga chora yo'q. Qo'pol so'z do'stlik rishtasini uzadi, yumshoq so'z adovat pog'onasidan do'stlik martabasiga yetkazadi, deb yozadi. Agar kishining tili muloyim va shirin bo'lsa, u hatto qancha katta bo'lishidan qat'iy nazar filni ham o'ziga rom qila oladi, - deb aytadi.

Rom qilg'ay o'ziga shirin zabonlig' filni,

Sudragay har on ani aylab burunduq qilni.

Koshify axloqiy fazilatlarning yana biri sabr borasida Haq Taollodan kelgan balolarga toqat qilish va o'zini qo'lga olishdir, - deb tushuntiradi. Sabr juda chiroysi va yoqimli sifatdir. Muqaddas kitobda "Albatta Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir" ("Baqara" surasi, 153-oyat)

kalimasi kelgan. “Albatta, sabr qiluvchilarga (oxiratda) mukofotlari behisob berilur” (“Zumar” surasi, 10 oyat) kalimasi bilan sabr qiluvchilarning mukofoti behad va behisobligi bayon etiladi. Sabr tufayli har bir kishi murodga yetgay, - deb yozadi.

Sabr qilmoq ergadur yaxshi sifat,

Toki topqay o’z murodin oqibat.

Koshify bu borada fikrini davom ettirib, kishi yashab turgan muhitda bo’layotgan voqeahodisalarning salbiy ta’siriga sabr bilan qanoat qilsagina u o’z oldiga qo’yan maqsadiga erishadi. Chunki sabr shodlik kalitidir va rohat adabining eshigi bu kalitsiz aslo ochilmas, - deb ta’kidlaydi.

Koshify omonat va diyonat fazilati haqida “diyonat xalqning ildizidir, imon omonat bilan mukammal bo’ladi”, “Omonatga xiyonat qiladigan kishida imon yo’q”, -deb ta’kidlaydi. Islomda esa shariat qoidasi diyonat rasmini saqlash bilan tartib topadi.

Shar’iki, qaror oldi siyonat uzra,

Din qoidasin qo’ydi diyonat uzra.

Ko’ngilda bo’lsa omonatdin asar,

Etmas do’zax o’tidin hech zarar.

Har bir ishga inson tafakkur bilan boqsa, sabr bilan ko’rgan va eshitgan narsasiga qarasa uning bir haddi omonatga va bir haddi xiyonatga bog’liqidir. Shunday bo’lgach, kishi biror ishda omonat saqlamasa, xiyonat qilgan bo’ladi. Koshify insonga Alloh har bir a’zoni omonat qilib berganki, toki u ularga xiyonat qilmasin. Masalan, ko’z shunday omonatki, uning bilan qudrati Illohiy narsalarga qarasinlar. Quloq omonati shuki, u bilan Alloh taollo kalomini va Rasululloh hadislarini va nasihatini eshitsinlar. Til shunday omonatki, u bilan Haq taollo zikrini aytsinlar. Qo’l omonati shuki, u bilan xaloyiqqa foyda keltirsin. Koshify “diyonat” so’zining ma’nosini omonat saqlamoqdir va uning rasmini saqlash ikki jahon saodatiga, balki Xudo roziligidagi sababdir. Axloqiy fazilatlardan keyingisi farosat tushunchasidir. Koshify “farosat” so’zining lug’aviy ma’nosini biror narsaning yaxshi va yomon xususiyatini ko’rib aniqlashdir, istilohiy ma’nosini esa umumiy bo’lib, jonning suratdagi zohir holini mushohada qilib, uning ichki mohiyatidan ogoh bo’lishdir.

Koshify farosat hukumat ishining ulug’ shartidir va har bir ish yuz berganda huquq ahli uning oldi va orqasiga basirat (arab tilida ko’pmoq) ko’zi bilan nazar solishi lozimki, toki adolatli hukm chiqarsinlar. Agar ish hodisa haqiqati maxfiy bo’lsa, uni farosat nuri bilan topsinlar. Chunki hukumat ziynati farosat zevari bilan go’zaldir. Koshify farosat ikki qismidan iborat deb aytadi: hukmiy farosat va shar’iy farosat. Shar’iy farosat “pok botin va sof ko’ngilli kishining ko’zidan ko’tarilib, farosat nuri bilan haqiqatni anglab yetadi” va ikkinchi qism hukmiy farosat bo’lib, donishmandlar uni tajriba bilan topadilar va dalillarini kishining shakli va shamoilidan mushohada qilib, aniqlaydilar va buning aksari to’g’ri chiqadi.

Farosatdin ko’ngilga ko’z ochilg’ay,

Hama holatni ul ma’lum qilgay.

Agar inson ko’ngilda farosat ko’zi ochilsa undagi hamma holat ma’lum bo’lib haqiqat qaror topadi. Buning uchun inson qalbi pok niyati xolis bo’lsa, unda ilohiy baxsh etilgan ne’matlar qaror topadi.

Husayn Voiz Koshify “Axloqi Muhsiniy” asarida shijoat bayoniga alohida e’tibor berib, unda bu fazilatlar “jubn va tahavvur o’rtasidagi quvvatdir”, -deb ta’rif beradi. “Jubn” so’zi g’oyatda qo’rroq va “tahavvur” esa o’ta yurakli bo’lish va o’zini bemalol tutishdir, - deb tushuntiradi. Koshify shijoat fazilatlarning onasidir. Ya’ni ulug’ va yoqimli xislat,- deydi.

Muqaddas kitoblarda shijoatning ta’rifida shunday deyilgan: “Alloh shijoatli kishilarni yaxshi ko’radi”, “shijoatli kishilarni tabarruk tutingizlar, ular Parvardigordan yaxshilikni istaydilar”, “qo’rroqlar esa jang kuni umid bog’laydilar, botirlar Alloh taolo fazliga ishonadilar”. Hazrati Payg’ambar (s.a.v) o’zlarini shijoatga nisbat berib “mening risqim nayzamning soyasidir”, - deganlar.

Olg’usi har kim, shujo’ o’lsa jahon,

Kelmadи bedil qo’lidan hech kor.

Har kishi jang ichra jur’at ko’rguzur,

O'zni qilg'ay taxt uzra tojdar.

Islom lashkarlari orasida mashhur bo'lgan Xolid bin Valid bu dunyodan ketar vaqtida yig'lab, "Vohasrato, ko'pjang sarflarini sindirdim, hisobsiz maydonlarda shijoatlar ko'rsatdim, ko'p zarbalar jarohatini va nayzalar alamini ko'tardim. Hozir esa qari kampirlar kabi to'shak ustida o'lib ketmoqdamani. Ajaldan choram yo'q, bo'lmasa, aziz jonimni yaxshi nom qoldirishning bahosiga bergen bo'lardim va shahidlik saodatini topgan bo'lardim", -deb aytadi [34]. Bu fikrdan shu narsa anglashiladiki, qo'rkoq kishilar jon himoyasi uchun qochishni afzal ko'rishadi, lekin bu inson uchun yomon tasavvur bo'lib, jur'at va botirlik dushmani og'zidan tishini to'kadi. Aksincha, insondagi qo'rkoqlik va sustlik esa dushmanning ruhini ko'taradi. Koshify qo'rkoqlar dushman tig'ida halok bo'ladi jur'at egalari esa halokat chog'ida najot topadi, -deb ta'kidlaydi va bu qit'ani misol keltiradi.

Har kishikim, jangda qo'rqnunchoq bedil erur,

Bilki dushman qo'lida jonini ul erga berur.

Razm ichra eranlar qoshida qil jur'ate,

Toki xalq ichra eranliq birla topqil shuhrate.

Podshohlar biri jang maydonidagi lashkarlariga qarata bugun imtihon kunida kimdaki jur'at toza oltin kabi bo'lsa omon chiqishi va kimda qo'rkoqlik hissiyoti g'olib kelsa jang marakasida halok bo'ladi, -deb aytadi.

Koshify shijoatli inson doimo o'zini har qanday qiyin ishlarni bajarishga, har qanday jafo yukini ko'tarishga qalbini ruhan tayyorlaydi va shundagina uning mashhurlik ovozasi masal kabi falaklarga taraladi, -deb aytadi, va ushbu qit'ani misol keltiradi;

Kerak bizga shijoat birla shuhrat,

Ki aningdin kishi topqay sharofat.

Er uldirkim, o'zin mashhur etgay,

Ki shuhrat topilib jon ketsa yetgay. Shu o'rinda Koshify, Podshoh Afrosiyobning lashkarlariga aytgan fikrini: "o'lishga tayyor bo'lingiz, toki uzoq umr ko'rgaysizlar, joningizni o'limga chaqiring, toki davlatda izzat sarmoyasini qo'lga kiritgaysiz", -deb misol tariqasida keltirib o'tadi.

Agar tutsa o'limni har kishi xor,

Shijoat birla bo'lg'ay oliymiqdor.

Kishikim jonini tutsa muazzaz,

Jahondor o'limg'aydur turfa dushvor.

Bu erda Koshify, inson ulug'likni istasa u ikki narsada namoyon bo'ladi: Birinchisi, yaxshi ot chiqarib o'lishdan, ikkinchisi esa xalqqa maqbul bo'lib hayot kechirishdan, -deb tushintiradi.

"Axloqi Muhsiniy"da qayd qilinishicha, jang changalzorining sheri va shijoat maydonining daliri Ali dushman qaerda ko'p bo'lsa o'sha yerga jangga birinchilardan bo'lib kirar va hech qashon joni vahimaga tushushidan xavotir olmas edi. Bir kuni unga juda jur'atli inson ekanligini aytib, o'z joningizni saqlashda ham g'ofil bo'ling, deyishdi. Shunda u "Aniq bilamanki, agar ajal yetgan bo'lsa, ehtiyyotkorlik foyda bermaydi, agar o'lim hukmi taqdir hokimidan sodir bo'limgan bo'lsa, menga bu jur'at zarar qilmaydi", -dedi.

Hazar qilmoq o'lumdin, bu ikki kavn ichra sud etmas,

O'shal kunkim qazo yetkay, o'shal kunkim qazo etmas.

O'shal kunkim qazo etsa, bu ko'chish bermay sude,

O'shal kunkim qazo yetmas, hayoting o'rnidin ketmas.

Koshify ushbu jumlada qachonki Alloh taolo tomonidan insonni ajal kuni belgilanmas ekan, u har qanday jang maydonidan ham omon chiqa olishi kerakligini aytib o'tadi. Bir hikoyada yozilishicha, habashlar Yamanni egallagandan keyin uning Podshohi Sayf Zulyazan majbur bo'lib No'shiravon huzuriga kelishga jazm etadi. Undan yordam so'raydi va zindonda yotgan o'g'rilar, qaroqchilar, ayyorlar va fitna ahlidan bo'lgan bir ming sakkiz yuz kishini olib kemalarga solib Yaman viloyatiga keltiradi. Sayfnинг buyrug'i bilan kemalar sindirilib oziq - ovqatlar daryoga oqizib yuboriladi. Shunda jamoa undan nimaga bunday qilganligini so'rashganda, "hozir sizlar ikki ish o'rtasida turibsizlar, yaxshilab o'ylab ko'ringlar, yo o'lish kerak yoki yengish kerak", -

deydi. Qaytib ketishdan umid uzgan jamoa zo'r harakat bilan jangga kirishdi va habashning lashkarlari ustidan g'alabani qo'lga kiritishdi. Bu hikoyadan shu narsani tushunish mumkinki, inson ruhiyati shunday kuchga egaki, qachonki inson qalbida qo'rquv hukmronlik qilmasa har qanday vaziyatda ham imkon topib g'alaba qozonish ishtiyoqi g'olib keladi. Bu o'rinda Podshohning "jur'at va shijoati ko'proq bo'lsa, tezroq maqsad manziliga yetadi va murod chehrasini qasd oyinasida ko'ngli tilagandek ko'ra oladi".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Husayn Voiz Koshifiy insonda har kun va har doim uchraydigan bu kabi ko'plab ma'naviy - axloqiy fazilatlarni davom ettirish mumkin. Ammo odob masalasi bugungi kunda axborot hajmining keskin oshishi, zamonaviy texnologiyalarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarida e'tiborli bo'lishimiz zarurligini ko'rsatmoqda. Turli ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan xabarlarlar va turli formatdagagi axborot oqimi, "g'oyasizlik" bilan sug'orilgan tashviqot axborotlariga qarshi kurashuvchanlik immunitetini shakllantirish ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish o'tmish mutafakkirlarimizning boy ilmiy merosini o'rganish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhay Abduraxmonov. Saodatga eltuvchi bilim. –T.: "Movarounnahr" 2004. 525-bet.
2. Егоров Е.Д. Праксиология: Основы теории. Часть 2. Субъекты отношений. — Москва: Юстицинформ, 2020. — 238 с. с. — ISBN ISBN 978-5-7205-1625-3.
3. Бобров В. В., Черненко А. К. Правовая технология. — Новосибирск: Изд-во СО РАН, 2014. — с. 157.
4. Саидов А. Сравнительное правоведение.- Т.:Адолат, 1999. – С.454.
5. Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. Футувватномаи Султоний. Форс тилидан А.А.Мадраимов ва б.(тарж), "O'ZBEKISTON" 2019й. 155-б.
6. Ashurova M. Futuvvat (Javonmardlik) - axloqiy tarbiya asosi // "Pedagogik mahorat" Ilmiy nazariy metodik jurnal. 2021-yil 2-son. –p.106.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

**Qambarov Mirzobobur Baxodir o'g'li**  
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatni sifatini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, faoliyat, ta'lim, o'quvchi, motivatsiya, axborot, zamonaviy.

**Abstract.** The article highlights the issues of improving the quality of educational activities of primary school teachers through the formation of life skills for students.

**Key words:** technology, activity, education, student, motivation, information, modernity.

**Аннотация.** В статье освещены вопросы повышения качества учебной деятельности учителя начальных классов путем формирования жизненных навыков ученикам.

**Ключевые слова:** Технология, деятельность, образование, ученик, мотивация, информация, современность.

Bugungi raqamlı texnologiyalar asrida sifatli ta'lim va tarbiya muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan. Bugungi kunda zamonaviy talim nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini belgilab beruvchi mezon, balki ular dunyoqarashini, kelajakda ularning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini aks ettiruvchi muhim qadriyat bo'lib ham hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilarni ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatga motivatsiyasini oshirish – bugungi kun pegagogining asosiy vazifasi sifatida namoyon

## MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SO‘ZI .....	3
O.X.Xamidov. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMGA XORIJ TAJRIBALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	4

### 1-SEKTOR: BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR ..... 6

Buse Seval İlman, Doç.Dr.Nilay Dereobalı. Erken Çocukluk Eğitiminde Aktif Öğrenme Yaklaşımı Üzerine Yapılan Araştırmaların Sistematiske Derleme Çalışması.....	13
Erdal YÜKSEL, Doç.Dr.Nilay DEREOBALI. HİKAYE OKUMA ETKİNLİKLERİNİN OKULÖNCESİ DÖNEM ÇOCUKLARININ KELİME DAĞARCIĞINA ETKİSİNİN BEYİN FIRTINASI TEKNİĞİ ARACILIĞIyla DEĞERLENDİRİLMESİ .....	25
Шерифдинова Эльвина Рустемовна. ПРОБЛЕМЫ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ .....	41
Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNG‘TA‘LIM JARAYONI .....	43
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И ДАЛЬНЕЙШЕЙ РАБОТЫ С ОДАРЁННЫМИ ДЕТЬМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	46
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TA‘LIMDA XORIJIY TAJRIBA .....	49
Azimov Yunus Yusupovich. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52
Хусенова Азиза Шариповна. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ В ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИССЛЕДОВАНИЯХ PIRLS .....	55
Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI .....	59
Рахматуллина Шаура Мажитовна. ОБНОВЛЕННЫЙ ФГОС НОО ЕГО ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	68

### 2-SEKTOR: MILLIY O‘QUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI, YANGI AVLOD DARSLIKLARI..... 71

Saidova Muhabbat Shukrullayevna. YANGI AVLOD DARSLIKLARI TA‘LIM JARAYONINING MUHIM BO‘G‘INI SIFATIDA .....	71
SH.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH SINF YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATILISHINING METODIK IMKONIYATLARI .....	72
Husenova Aziza Sharipovna. MILLIY O‘QUV DASTURNING DIDAKTIK ASOSLARI VA UNING TA‘LIM TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI .....	78
X. Gulyamova. OLIY TA‘LIMDA TALABALARNI MAKTABDA LEKSIKOLOGIYANI O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	80
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI YORITILISHI BORASIDA .....	85
Jumayeva Habiba G‘afarovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING JORIY ETILISHI .....	88
Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna. YANGI AVLOD DARSLIKARI - O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANТИRISH ASOSI .....	90
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MILLIY O‘QUV DASTURI VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI .....	93

### 3-SEKTOR: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR..... 96

Azimov Yunus Yusupovich, Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH (PIRLS) TIZIMIGA TAYYORLASH.....	96
Jahongir Yuldashev. STEAM – YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH .....	98

Abdullayeva Feruza Nurillayevna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH .....	167
F.M.Qosimov, R Dilmurodova. VAQT O'LCHOVLARINI O'RGATISHDA IJODIY YONDASHISH .....	171
M.M.Qosimova, Ikromova Sevinch. BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA O'QITISHDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH BO'YICHA TAVSIYALAR .....	174
Adizova Nigora Baxtiyorovna. DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'ZIGA XOS AHAMIYATI.....	177
Adizova Nodira Baxtiyorovna. TALABALARING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI KORPUSLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI .....	179
Navruzova Muyassar Gaybullayevna. "FOLKLOR TILI" TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI .....	181
Xalilova Ruxsora Raupovna. VIRTUAL MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	184
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA UCHROVCHI KIYIMGA YORDAMCHI BUYUMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	186
Xalilova Ruxsora Raupovna, Muzaffarova Niginabonu Ixtiyorovna, Nabiyeva Maftuna Nabi qizi. VIRTUAL MULOQOTDA XALQONA RUHNING IFODALANISHI .....	189
Rajabova Nodirabegim Komilovna. BLENDED LEARNING ARALASH TA'LIMDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	190
Yusufzoda Shabnami Yunus. RAQAMLARNI ANIQ VA CHIROYLI YOZISH METODIKASI .....	192
Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	197
Davronov Dilshodbek Ismoilovich. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA BADIY MATN USTIDA ISHLASHDA INTEGRATSIYALASHGAN MEDIATA'LIMNING MAZMUNI VA UNING QO'LLANILISH METODIKASI .....	200
Ashurova Marhabo Sayfullo耶evna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY QARASHLARIDA INSONIY FAZILATLARNING MA'NAVIY- AXLOQIY JIHATLARI .....	202
Qambarov Mirzobobur Baxodir o'g'li. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	207
Toyirova Nazokat Moxirovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI O'RTASIDA METAPREDMETLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH .....	209
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH .....	212
Husenova Aziza Sharipovna, Jalilova Shoira. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI .....	214
Турдиева Нигора Сайдовна. ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	215
Ашуррова Хуршида Асроровна. КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ .....	219
Aslanova Nargiza Xakimovna. DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO'NALTIRISH .....	221
Djurayeva Salomat Nabi耶evna. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH .....	223
Nuradilova Aselxon Dilshodhuja qizi. INNOVATSION TA'LIM – YANGI NATIJALARGA QARATILGAN TA'LIM .....	226
Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. KOMMUNIKATIVLIK TAMOYILI ASOSIDA O'QUVCHILARDA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH .....	228
Husenova Aziza Sharipovna, Akramova Nodira. BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV .....	232
Qayimov Laziz Mirzo o'g'li. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH .....	234
Aytbayev Dilshodhuja Temirbayevich. O'ZBEK TILNING INTONATSION XUSUSIYATLARI .....	236
Салихов Шохрух Мансурович. ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНФОРМАЦИИ НОВОЙ ЭПОХИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ .....	238
Lukmonova Salomat Gafurovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMO VA YECHIMLARI .....	242